



PIROTEKNIKA VOSITALARI SAVDOSINI OLDI OLINIB QOLINDI

Begmatov Jasur Abdinabievich
Mirobod tumani IIO FMB Tergovchisi

Annotatsiya: Yangi yil yaqinlashgani sayin odamlarda pirotexnika vositalarga bo'lgan qiziqish kuchayadi. Bu esa, garchi taqiqlangan bo'lsa-da, pirotexnika vositalarining savdosi avj olishiga olib kelib, afsuski insonlarga ko'p noxushliklar keltiradi.

Kalit so'zlar: pirotexnika vositalari, bojxona rasmiylashtiruvidan, ma'muriy jazo va jinoyat kodeksi.

Toshkent shahar bojxona boshqarmasi Kontrabandaga qarshi kurashish va bojxona auditi bo'limi va Toshkent shahar Mirobod tumani IIO FMB JQB xodimlari bilan xamkorlikda pirotexnika vositalarining noqonuniy aylanuvini oldini olish yuzasidan xamkorlikda tezkor tadbir o'tkazildi. Tezkor tadbir davomida, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi R.D.Davronov tomonidan qayta sotish uchun olib kelingan Yashnobod tumanida joylashgan uylarning birida yuklashga tayyorlab qo'yilgan bojxona rasmiylashtiruvidan o'tganligini tasdiqlovchi hujjatlari bo'lmagan jami 8 dona karton korobkalardagi 218 dona Zolotoy drakon nomli (salyut), 230 dona Noviy vek nomli (salyut), 2736 dona Solovey razboynik nomli (bombochka) va 4 dona 9D nomli (salyut) pirotexnika vositalari borligi aniqlanib, ushbu pirotexnika vositalari xolislar ishtirokida bayonnoma rasmiylashtirilgan xolda vaqtincha saqlovga olingan.





Shuningdek, shu kuni tabdir davom ettirilib Sh.M.Shermatovga tegishli va u tomonidan Mirobod tumanida joylashgan uyning avtoturargohiga tashlab ketilgan oq rangli “Damas” rusumli transport vositasining saloni xolislar ishtirokida ko‘zdan kechirilganda 7 nomdagi 3951 qutida 149031 dona pirotexnika vositalari borligi aniqlanib, xolislar ishtirokida bayonnoma rasmiylashtirilib vaqtincha saqlovga olingan.



Mazkur xolat yuzasidan Mirobod tumani IIO FMB Tergov bo‘limi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atilib, dastlabki tergov xarakatlari olib borilmoqda, bundan tashqari bu boradagi tadbirlar davom ettirilmoqda.

Bu turdagi jinoyatlarni oldini olish maqsadida bozor va do‘konlarga xuquqiy tavsiyalar berilib, ularning xuquqiy ongi oshirilmoqda. Bundan tashqari xar bir tergov idorasi xodimlari tomonidan oyiga to‘rt marotaba maxalla fuqarolar yig‘inlari, idora va tashkilotlarda jinoyatlarni oldini olish yuzasidan turli mavzularda chiqishlar va davra suxbatlari o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yilgan. Bu bilan tergov idoralari xodimlari fuqarolarni jinoyat qurboniga aylanishlarini oldini olishga o‘z xissalarini qo‘shmoqdalar.

Xurmatli fuqarolar pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, jo‘natish, ulardan foydalanish, xuddi shuningdek ularni qonunga xilof ravishda O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish (O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqish) yoki o‘tkazish ancha miqdorda yoxud shunday harakatlar uchun O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 185¹-moddasi bo‘yicha ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa O‘zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining 250¹-



moddasi **Pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomilasi** bo'yicha javobgarlik belgilangan.

Xulosa: Ushbu xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, pirotexnika vositalari savdosi asosan yangi yil arafasida avj oladi. O'zbekistonda yangi yil mavsumi vaqtida pirotexnika vositalaridan foydalanish oqibatida ko'pgina odam jarohat oladi va ko'pgina xonadonlarda yong'in yuzaga keladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi "O'zbekiston" nashriyoti.
- 2.O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi //URL:http://.lex.uz.
- 3.O'zbekiston Respublikasining Mamuriy Javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi//URL/http:lex.uz.